

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA MAFTUNA KARIMBERDIYEVNA

**“UMUMIY O‘RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR
ZO‘RAVONLIGI PROFILAKTIKASIDA IJTIMOIIY ISH
SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI”**

22.00.02– Ijtimoiy tuzulish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
социологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor Philosophy (PhD) on Sociological
Sciences**

Karimova Maftuna Karimberdiyevna

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalar zo'ravonligi profilaktikasida ijtimoiy
ish samaradorligini baholash mexanizmlari.....3

Каримова Мафтуна Каримбердиевна

Механизмы оценки эффективности социальной работы по профилактике
детского насилия в учреждениях общего среднего образования.....27

Karimova Maftuna Karimberdiyevna

Mechanisms for evaluating the effectiveness of social work in the prevention of
child violence in general secondary educational institutions.....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA MAFTUNA KARIMBERDIYEVNA

**“UMUMIY O‘RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR
ZO‘RAVONLIGI PROFILAKTIKASIDA IJTIMOIIY ISH
SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI”**

22.00.02– Ijtimoiy tuzulish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.1.PhD/S135 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/avtireferatlar), "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmonova Manzura Manafovna
sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sabirova Umida Farhodovna
sotsiologiya fanlari doktori (DSc), v.b. professor
Yunusov Alisher Bobomuradovich
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzurida tashkil etilgan ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/2025.27.12.S.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "18" avgust soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel.: 0(371) 232-60-47; faks: 0(371)239-17-83, e-mail: info@dba.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ma'muriy binosi, 2-qavat, 220-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (390-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel.: 0(371) 232-60-47; faks: 0(371)239-17-83, e-mail: info@dba.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Ma'muriy binosi, 2-qavat, 203-xona.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "5" avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil " " avgustdagi -raqamli reyestr bayonnomasi.)

M.B.Bekmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda bolaga nisbatan zo‘ravonlik va beparvolik dunyo miqyosida ko‘rib chiqilayotgan muhim muammolardandir. Dunyo miqyosida qabul qilingan bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada bolalarning zo‘ravonlik, psixologik, jismoniy, haqorat, ekspluatatsiya qilishning barcha turlaridan himoyasi belgilangan. BMT Bosh Assambleyasi rezolutsiyasida zo‘ravonlikning dunyo miqyosida avj olayotgani, buning oqibatida bolalar huquqi buzilishiga olib kelayotgani va zo‘ravonlik qurbonlari uzoq muddat davomida uning salbiy oqibatlari ta‘sirida qolib kelayotgani haqida ma‘lumotlar e‘lon qilingan bo‘lib, rezolutsiya doirasida Bosh Assambleya a‘zo davlatlarga bolalarni maktabda zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha choralar ishlab chiqish masalasini ilgari suradi¹. Ma‘lumotlarga ko‘ra, YUNESKO ning “Maktabda zo‘ravonlik va bulling” global hisobotida dunyo bo‘yicha har yili 246 millionga yaqin bolalar va o‘smirlar maktabda zo‘ravonlik va ta‘qibga duch kelishlari ko‘rsatib o‘tilgan². BMTning bolalar jamg‘armasi (YUNISEF)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, 13-15 yosh oralig‘idagi 130 milliondan ziyod bolalar maktabda zo‘ravonlikka (bullinga) uchramoqda³.

Jahoning yetakchi ilmiy maktablari, universitetlari, ilmiy tadqiqot institutlarida zo‘ravonlik profilaktikasi bo‘yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada maktabdagi zo‘ravonlik profilaktikasi bo‘yicha samarali kompleks dasturlar ishlab chiqilgan, sog‘lom maktab muhiti, bola huquqlarini muhofaza qilish, o‘quvchilarda kuch ishlatmaslik madaniyatini shakllantirish, bolalar xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, ta‘limning qulay sharoitlarini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borish zarurati kun tartibidan o‘rin olmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta‘lim muassasalarida bolalarga nisbatan turli xildagi zo‘ravonlikni aniqlash, ularni oldini olish va bartaraf etish ijtimoiy ish xodimlarining hissasi katta hisoblanadi. Xavfni o‘z vaqtida aniqlash, madaniy kompetensiya, jamoat xizmatlari bilan hamkorlik qilish, ijtimoiy o‘zgarishlarni targ‘ib qilish va zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalar hamda oilalarga har tomonlama yordam ko‘rsatishning ahamiyati yuqori. Ijtimoiy ish xodimlari maktablarda bolalar uchun xavfsiz va pozitiv tarbiyali muhit yaratishda katta hissa qo‘shadilar.

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash, odamlarni rozi qilish asosidagi barqaror taraqqiyotga erishish davlatning ustuvor siyosati va zamonaviy boshqaruvning ilg‘or tendensiyasi darajasiga ko‘tarildi⁴. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Yoshlar orasida zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishini oldini olish ham o‘ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi”⁵ deb ta‘kidlab o‘tadilar. O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi zo‘ravonlik holatlarining soni ortib

¹ BMT Bosh Assambleyasi 2014-yilda 69/158 sonli rezolyutsiyasi

² Gaybulloyev A. O‘quvchilarida bulling xulq-atvorni barqarorlashtirishning psixologik omillari.//Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. 12(6)2024.-B.214.

³ Unicef O‘zbekiston “Bola bilan bulling haqida qanday gaplashish kerak”. www.unicef.org/uzbekistan/uz/kak-razgovarivaty-s-rebenkom-o-bullinge

⁴ Bekmurodov M. Inklyuziv jamiyat- ijtimoiy davlatning ma‘naviy poydevori.//Ijtimoiy davlatda inklyuziv yondashuv imkoniyatlari.- Toshkent 2024.- B.16.

⁵ Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston -Toshkent: “O‘zbekiston” 2024. -B.21.

borayotganligi, bu salbiy hodisalarni oldini olishda zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Jumladan, xorijiy mamlakatlarda yaxshi samara bergan dasturlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda amaliyotga olib kirish zarurati yangi usullarni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konsitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni⁶, "Bola huquqlari kafolatlari" to'g'risida"gi⁷ Qonuni, "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi⁸ Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-№ 60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni⁹, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"¹⁰, 2019-yil 22- apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi¹¹ PQ-4296-son qarori hamda sohaga oid boshqa qator hujjatlar bu borada amalga oshirilayotgan faoliyatning me'yoriy-huquqiy asoslarini belgilab bermoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Insoniyatning butun hayoti davomida shaxslar bir-birlariga nisbatan ma'lum bir ko'rinishlarda tajovuzkor va shafqatsiz munosabatda bo'lib kelganlar. Jumladan, zardushtiylilik dini ta'limotiga ko'ra, yovuzlik timsoli bo'lgan Axriman o'zida barcha salbiy illatlar qatori, zo'ravonlikni ham namoyon etib, insonlarda bunday harakatlar, shaxslararo munosabatlarda ham zo'rlik ishlatish salbiy holat ekanligi haqida tushuncha shakllanishiga xizmat qilgan¹². Keyinchalik paydo bo'lgan islom dini tinchlik dini bo'lib, u ezgu ishlar, mehribonlik, rahm-shafqat, tozalik, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish kabi g'oyalarni ilgari suradi hamda insonning insonga, tabiatga zo'rlik ishlatishini qat'iy qoralaydi¹³. O'rta asrlarda Markaziy Osiyolik mutafakkir olimlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiy asarlarida ham inson go'zal xulqqa ega bo'lishi zarurligi, zo'ravonlik yomon oqibatlariga olib kelishi haqidagi qarashlar mujassamlangan¹⁴.

G'arbda zo'ravonlik hodisasiga aloqador bo'lgan ilk ilmiy qarashlar antik davr faylasuflari Aflotun va Arastu asarlarida uchraydi. Keyinchalik o'rta asrlarda N.Makiavelli, T.Gops, J.Lokk, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, I.Kant, G.Gegel va

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/-5013007>

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida. // <https://www.lex.uz>

⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.11.2024 yildagi O'RQ-996-son Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/docs/-7219502>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF №60-sonli Farmoni.// "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/pdfs/5841063>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/4312785>

¹¹ "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4302023>

¹² Boboyev H, Hasanov S. "Avesto"-ma'naviyatimiz sharchashmasi.-Toshkent: Adolat,2001.-B.110.

¹³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini.// -T.: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi., 2021. -B.632.

¹⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri (Tanlangan asarlar to'plami).// T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.,- 1993 y.; Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.: «Fan», 1968 yil. 1 tom. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 236-bet; Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub.// To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. J.9 454-658 betlar.

F.Nitsshelar¹⁵ zo‘ravonlikni falsafiy jihatdan tahlil qilganlar. Zo‘ravonlik va tajovuz bir nechta nazariy yo‘nalishlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ba’zi ilmiy maktab vakillari zo‘ravonlik hodisasini o‘rganish asosiga ko‘ra izohlaydilar. Shu kungacha ishlab chiqilgan nazariyalar mavjud muommoning faqat bir tomonini o‘rganish yetarli bo‘lmaydi, uni va tahlil qilish imkonini beradi, xolos. Zo‘ravonlikni ta’riflash (tushunish) uchun esa bir nechta yondashuvlar asosida tushuntirish talab qilinadi. Bunda antropologik, psixologik, sotsiolog, madaniy jihatlar eng muhimi sanaladi. Dastlab psixologlar zo‘ravonlikning tub ildizlarini insonning qalbidan, uning ruhiyatidan izlaganlar. Bu kabi yondashuvlar Z.Freyd, Karl Yung, K.Xorni, E.Fromm tadqiqotlarida ilgari surilgan¹⁶. D.Leyn hamda O.Malansevalar esa bullingni maktabdagi zo‘ravonlik bilan bog‘lab, bu hodisa o‘zida individ yoki guruh tomonidan mazkur holatda o‘zini yetarlicha himoya qila olmaydigan individga nisbatan uzoq muddatli jismoniy va psixologik zo‘ravonlik ko‘rinishida gavdalantirilishini aniqlaganlar, masalani pedagogik jihatdan tahlil qilganlar¹⁷. Zo‘ravonlik fenomenining davlat hokimiyati va ijtimoiy tartib bilan aloqador jihatlar T.Gobs va M.Veber qarashlarida muhim nazariy masala sifatida namoyon bo‘ladi. T.Gobs davlatni kishilar o‘rtasidagi nizolar va o‘zaro zo‘ravonlikni cheklovchi umumiy hokimiyat sifatida asoslagan bo‘lsa, M.Veber zamonaviy davlatning muhim sotsiologik belgisini muayyan hudud doirasida legitim jismoniy zo‘ravonlik vositalaridan foydalanish monopoliyasi bilan izohlaydi¹⁸. E.Dyurkgeym va R.Mertoning anomiya va deviant xulq-atvor to‘g‘risidagi nazariy qarashlarida¹⁹ tilga olinib boshlagan. MDH olimlaridan I.N.Grigovich²⁰, V.E.Drujinin, R.N.Klayberg, A.A.Rean va boshqalar²¹ o‘z asarlarida bu holatning ilmiy, psixologik, pedagogik jihatlarini yoritib berganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Bekmurodov, A.Umarov, A.Xolbekov, M.G‘aniyeva, O.Abduazimov, T.Matiboyev, Sh.Sodiqova, A.Qahhorov, N.Latipova, A.Seitov, A.Yunusov, M.G‘afforova, A.Tolipov, B.Tojiboyev,

¹⁵ Макиавелли Н. Хукмдор. – URL: <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/> (02.08.2020).; Гоббс Т. Избранные произведения: В 2 т. М., 1964. Т. 1. С. 292; Локк Дж. Сочинения: В 3 т. /Пер. с англ. и лат. Т. 3/Ред. и сост., авт. примеч. А. Л. Субботин.—М.: Мысль, 1988.; Руссо Ж.-Ж. Общественный договор, или Принципы государственного права. – М.: С. Сирмунт, 1906; Беккариа Ч. О преступлениях и наказаниях. М.: Фирма «Стелс» БИМПЛ, 1995; Кант И. Сочинения. В 8 т. Т. 6. – М.: Чоро, 1994.; Гегель Г. Философия права. – М.: Мысль, 1990; Ницше Ф. Полное собрание сочинений. В 13 т. Т. 5 / Ин-т философии РАН. – М.: Культурная революция, 2005.

¹⁶ Хорни К. Невротическая личность нашего времени – СПб.: Питер, 2002; Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М.: АСТ, 2016. Юнг К.Г. Архетип и символ - М.: Ренессанс, 1991. С. 215

¹⁷ Лэйн Д.А. Школьная травля (буллинг) // Детская и подростковая психотерапия / под ред. Д. Лэйна и Э. Миллера. СПб.: Питер, 2001. С. 240–274., Маланцева О.Д. «Буллинг» в школе. Что мы можем сделать? // Социальная педагогика. 2007. № 4. С. 90–92.

¹⁸ Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского // Сочинения: в 2 т. / сост., ред. и примеч. В.В. Соколова. – М.: Мысль, 1991. – Т. 2. – С. 3–545., Вебер М. Избранные произведения // Политика как призвание и профессия. — М.: Прогресс, 1990, стр. 644-706.

¹⁹ Дюркгейм Э. Общественное разделение труда. Метод социологии - М.: Наука, 1991; Merton, Robert K. (August 1, 1968). Social Theory and Social Structure (1968 enlarged ed.). New York, NY, US: Free Press. ISBN 978-0-02-921130-4

²⁰ Grigovich I.N, Mokurov S.M.. «Battered child syndrome» – Medical diagnosis. № 3 . 2012 . Детская больница. Р. 9-13

²¹ Приводится по: Ботова М.Г. Соотношение понятий «Насилие» и «Агрессия»: теоретико-эмпирическое исследование // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. 2012. №1. С. 101.

E.Zaitov, X.Ziyayeva²² va boshqa olimlar tomonidan jamiyatimizning dolzarb muommolari sotsiologik nuqtayi nazaridan yoritib berildi. Xususan, shaxslararo zo‘ravonlikni deviant xulq-atvor ko‘rinishi sifatida A.Yunusov, S.Axrorov va B.Tojiboyevlar ilmiy ishlarida ko‘rib chiqishgan²³. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy fanlarda Z.Rasulova, N.Sog‘inov, A.Komilov, Sh.Olimov, N.Dalimova, N.Qosimova, Y.Asadov, R.Musurmanov, N.Halilovalar zo‘ravonlikni ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rgangan bo‘lsalar, N.Saydalixodjayeva, D.Ziyayeva, V.Andryanova, I.Xoldorova ijtimoiy-pedagogik jihatlarini, I. Karaketova, A. Abdurasulova, M. Usmonaliyev va boshqa huquqshunos olimlar zo‘ravonlik hamda deviant xulq-atvor bilan bog‘liq muammolarning kriminologik va jinoiy-huquqiy jihatlarini, Z.A. Amirov esa huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning profilaktikasi hamda bu jarayonda huquqiy tarbiyaning o‘rnini tadqiq etgan. Keyinchalik ushbu mavzudagi tadqiqotlar genderologik, kasbiy o‘ziga xoslik jihatlaridan ham o‘rganila boshlandi. Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlari sirasiga T.Narbayeva, X.Ziyayeva va A.Madraximovlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Bu tadqiqot ishlarida xotin-qizlar zo‘ravonligi masalalari, O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarida va harbiy xizmatchilarida deviantlik omillari, o‘rta maktablarda o‘smirlar o‘rtasidagi bolalar zo‘ravonligi (bulling) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlillari hamda uning profilaktikasi tahlil qilingan²⁴. X.O.Ziyoyeva o‘z izlanishlarida O‘zbekistonda maishiy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor qaratdi.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy hayotni erkinlashtirish va davlat hamda jamiyat boshqaruvida jamoatchilik fikrini o‘rganishga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishi

²² Бекмуратов М.Б. Роль образовательных учреждений в подготовке социальных работников высшей квалификации.//Бола ва замон. Тошкент. 2009, №1, –Б.10-13; Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta’minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli: Sots. fan. dokt. dis.... - Toshkent: UzMU, 2005. –Б.65; Холбеков А. Социология молодёжи. Учебное пособие. –Ташкент: Университет, 2020; Ганиева М.Х. Социокультурная адаптация детей с ограниченными возможностями как направление социальной защиты.//Общественное мнение. Права человека. Ташкент: 2018. №4. –С.35-45.; Matibayev T.B. O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish omillari: Sots. fan. dok... diss. –Toshkent, 2017; Sodiqova Sh.M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili. Sots. fan.dok... diss. avtoref. –Toshkent.2016; Abduazimov O.U. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o‘rni: Sots. fan. dok...diss. –Toshkent, 2017; Сеитов А. Социологическое видение восточной цивилизации: генезис и дальнейшие перспективы. Монография. –Ташкент: Из-во нац. библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои. 2019; Latipova N.M. O‘zbekistonda oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilish. Sots. fan.dok... diss. avtoref. –Toshkent. 2020; Yunusov A.B. Ijtimoiy me’yordan og‘ish sabablari// Ijtimoiy tadqiqotlar.- Toshkent. 2020, №1. –B.55-56;

²³ Yunusov A.B. o‘smir me’yorni buzsa... Monografiya.-T.: A.Qodiriy nomidagi TDMI, 2008; Ahrorov S.Yu. Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo‘lishining ijtimoiy xususiyatlari: Sots. f. n. ilm. darajasini olish u-n tay. diss.-T., O‘zMU, 2009; Tojibayev B. O‘zbekiston o‘quvchi-yoshlarida deviantlik profilaktik omillarining sotsiologik tahlili. Sots.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish u-n tay. diss. T., ЎзР Президенти хузуридаги ДБА, 2019. A.Madraximov O‘rta maktablarda o‘smirlar o‘rtasidagi bolalar zo‘ravonligi (bullying) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili: Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati - Toshkent. 2023.- B.12.

²⁴ Narbayeva T.Q. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli: Sos.f.d. (DSs) ilm. darajasini olish u-n tay. diss.- T., O‘zR Prezidenti huzuridagi DBA, 2020; Ziyayeva X.O. Maishiy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirish mexanizmlari: Sots.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish u-n tay. diss.- T., O‘zR Prezidenti huzuridagi DBA, 2021.; I.Xoldorova Bullingning oldini olishda liderlar salohiyatidan foydalanish: Pedagogika fanlari bo‘yicha fanlar doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Jizzax 2023.- B.-14.; A.Madraximov O‘rta maktablarda o‘smirlar o‘rtasidagi bolalar zo‘ravonligi (bullying) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili: Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent 2023.B.15.

sotsiologiya fanining yanada taraqqiy etishiga imkon berdi va buning natijasida so'nggi yillarda sotsiologiyaning tor, shu bilan birga, muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlari, jumladan, insonlar o'rtasidagi zo'ravonlik holatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar salmog'i sezilarli darajada ortdi.

Bizning tadqiqotimizda umumta'lim maktablarida zo'ravonlik hodisasining yuzaga kelishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi xulq-atvordagi ijtimoiy-ruhiy o'zgarishlar xususiyatlari, ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy nazoratning deviantlik holatlariga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, unda umumta'lim maktablarida zo'ravonlik hodisasi profilaktikasida ijtimoiy ish xodimining ahamiyati va zarurligi alohida sotsiologik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-1-345-son "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalar zo'ravonligi profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy ish samaradorligini oshirish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ijtimoiy himoya tizimining jamiyat rivojidadagi o'rni va ahamiyatini empirik tahlil qilish;

- "zo'ravonlik" tushunchasiga nisbatan ijtimoiy fanlar kesimida shakllangan yondashuvlarni nazariy metodologik jihatdan tanqidiy o'rganish;

- umumta'lim maktablarida zo'ravonlik holatlari sodir bo'lishining oldini olishda ijtimoiy ish sohasi xodimlari ko'magidan foydalanish samaradorligini ko'rsatib berish;

- xorijiy mamlakatlarda bolalar zo'ravonligi profilaktikasida ijtimoiy ish xodimi tomonidan olib boriladigan tajribalarni o'rganish va O'zbekiston umumta'lim maktablarida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

- O'zbekiston ta'lim tizimida zo'ravonlik profilaktikasiga doir dasturlarni hamda zamonaviy usullarni tahlil qilish;

- maktabdagi bolalar o'rtasidagi zo'ravonlikni oldini olish uchun bolani ijtimoiy pasportini yaratish;

- umumta'lim maktablarida ijtimoiy ish xodimini kompleks yordami orqali zo'ravonlik holatlarining oldini olish imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston umumta'lim maktablarida bolalar zo'ravonligi profilaktikasining mavjud holati.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston umumta'lim maktablarida bolalar zo'ravonligi holatlarini profilaktika qilish jarayonlarining kontent tahlili, previntiv yondashuv va takomillashish imkoniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Empirik kuzatish, qiyoslash, anketa so'rovi, intervyu, statistik hamda sotsiologik ma'lumotlarni umumlashtirish, ekspert xulosalari, tahlil

usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Peer to Peer” (tengdosh-tengdoshga) dasturiga asoslangan “xavfsiz bolalik” deb nomlanuvchi guruhlar faoliyatini mahallada tizimli yo‘lga qo‘yilishi asosida zo‘ravonlik holatlarini oldini olishga erishilishi sotsiologik isbotlangan;

bolalar o‘rtasida yangi shakllanayotgan kvadroberlik holatlarini kamaytirishning “sotsio-emotsional integratsiya modeli” (jamoaviy o‘zaro munosabatni hamjihatlik orqali kuchaytirish, axborot makonida ijobiy identifikatsiyani sotsiokommunikativ orqali shakllantirish va oilaviy hamdardlik muhitini interaktivlik orqali mustahkamlash) ishlab chiqilgan;

“hurmatga qadamlar” dasturini maktablarda qo‘llash orqali tengdoshlar bilan do‘stlikni saqlash va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, empatiya va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida zo‘ravonlikning kamayishiga erishilishi sotsiologik asoslab berilgan;

oilam-maktab-mahalla hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar asosida zo‘ravonlikka nisbatan “nol bardoshlik”ni yo‘lga qo‘yish orqali gender stereotiplarga, kamsitishga va kamsituvchi hazillarga qarshi immunitetini shakllanishi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida zo‘ravonlikni barataraf etishga erishilishi sotsiologik asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumta‘lim maktablarida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatini samarali tashkillash jarayonini boshqarish va nazorat qilish, xavf guruhidagi o‘quvchilar bilan ish olib borishda ijtimoiy ish kasbiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini innovatsion g‘oyalar bilan belgilash asosiy omil sifatida tavsiya etilgan;

hozirgi zamon sharoitida umumta‘lim maktablarida zo‘ravonlik holatlariga sabab bo‘luvchi ijtimoiy omillar aniqlangan;

umumta‘lim maktablarida bolalar zo‘ravonligi holatlari, ularni oldini olish choralari yoritilgan hamda umumta‘lim maktablarida zo‘ravonlikni amalga oshirayotgan, shu jumladan, uning qurboni bo‘layotgan o‘quvchilarning ijtimoiy pasporti ishlab chiqilgan;

umumta‘lim maktablarida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasida ijtimoiy ish sohasi xodimlarining ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan maxsus sotsiologik tadqiqot dasturi va so‘rovnomasi ishlab chiqilib, amaliyotda sinab ko‘rilgan;

o‘tkazilgan maxsus tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yurtimiz maktablarida ijtimoiy ish xodimi faoliyatida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasiga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy ish maqsadiga muvofiqligi, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olinganligi, o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda tanlab olingan usulning maqsadga muvofiqligi va tanlov reprezentativligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta‘lim maktablarida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasining

zamonaviy xususiyatlari va konseptual asoslari tizimli tahlil qilinganligi hamda uning natijalaridan ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, “Xavf guruhidagi bolalar bilan ishlash”, “Zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar bilan ijtimoiy ish”, “Oilalar bilan ijtimoiy ish”, “Maktabdagi ijtimoiy ish”, “Ijtimoiy ishga kirish” kabi fanlarning mavzularini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyaning xulosa va tavsiyalaridan umumta’lim maktablarida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasiga doir faoliyatda, ijtimoiy ish xodimining kompleks yordami bolalar zo‘ravonligini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta’lim muassalarida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasida ijtimoiy ish kasbiy faoliyati samaradorligini baholash mexanizmlari:

umumta’lim maktablarida oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi ijobiy hamkorlikni tashkil qilish orqali zo‘ravonlik holatlarining oldini olishda samaradorlikka erishishga doir takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2025-yil 14-fevraldagi 4035-IV -sonli Qarori 9-ilovasidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2025-yilga mo‘ljallangan Ish rejasidagi 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” dasturi”dagi vazifalar hamda davlatimiz rahbarining “2025-yil 3-yanvardagi respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1 sonli qaroridan kelib chiqib, 2025-yil 20- fevraldagi O‘RQ-1035-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bola huquqlari himoyasini yanada mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritishda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasining 2025-yil 18-apreldagi № 18-05-65/1-sonli ma’lumotnomasi). Shuningdek dissertant tomonidan taklif qilingan ilmiy yangiliklar yoshlarning parlament hayotidan xabardorligini oshirish, ularning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish maqsadida Oliy Majlis qonunchilik palatasi tomonidan o‘tkaziladigan turli uchrashuvlar seminar va boshqa tadbirlarni tashkil qilishda foydalanildi.

“hurmatga qadamlar” dasturini maktablarda qo‘llash orqali tengdoshlar bilan do‘stlikni saqlash va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, empatiya va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida zo‘ravonlikni kamayishida ijobiy natijaga erishish ma’lumotidan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kardlarni tayyorlash instituti tomonidan o‘tkazilgan “Yoshlarning barqaror rivojlanishiga tahdid omillari: mavjud vaziyat va oldini olish imkoniyatlari” mavzusidagi tadqiqot natijalarini tahlil qilishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kardlarni tayyorlash institutining 2025-yil 1-martdagi №01-3/85/1-sonli dalolatnoma). Bundan tashqari dissertantning bevosita taklifiga ko‘ra, O‘zbekiston

Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kardlarni tayyorlash institutida turli uchrashuvlar, seminar treninglar va boshqa tadbirlarni tashkil qilishda foydalanilib, ulani yuqori saviyada o'tkazishga xizmat qilgan;

ijtimoiy institutlar (oilalar, maktab va mahalla) o'rtasidagi ijobiy hamkorlikni tashkil qilish orqali "Peer to Peer" (tengdosh-tengdoshga) tamoyiliga asoslangan "xavfsiz bolalik" qo'llab-quvvatlash guruhi faoliyatini mahallada tizimli yo'lga qo'yilishi hamda mahalla ijtimoiy ish xodimi "sog'lom oilalar - xavfsiz bola" dasturi asosida "siz farzandingizni qanday eshitasiz?" shiori ostidagi jamoaviy yondashuvi bolalar o'rtasida yangi shakllanayotgan kvadroberlik holatlarini kamayishida ijobiy natijaga erishish ma'lumotidan O'zbekiston Mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasida 2024-2025-o'quv yili uchun "Mahalla tizimi xodimlari" va "Mahalla yettiligi" a'zolari hamda vazirlik va idoralarning mahallalarga birlashtirilgan mas'ul xodimlarining mahalladagi faoliyati bo'yicha malakasini oshirish kursining o'quv dasturini hamda o'quv rejasining 13-o'quv yo'nalishidagi "Mahalla raislari tomonidan "Mahalla yettiligi" a'zolarining o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ularning faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish mexanizmlari" bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. Bundan tashqari dissertantning bevosita taklifiga ko'ra Mahalla akademiyasi tomonidan 2025-yil fevral oyida o'tkazilgan "Mahalla fuqarolari yig'ini tuzilmasidagi "Mahalla yettiligi" a'zolarining hamkorligi va hamjihatligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 4, 5, 6, 7, 9, 10-savollari va javob variantlarini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasining 2025-yil 25-martdagi № 01-03/20-sonli dalolatnoma). Shuningdek, Mahalla akademiyasi tomonidan dissertant tomonidan taklif qilingan ilmiy yangiliklardan 2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyatlarda davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlari, "Mahalla yettiligi"ning viloyat boshqarmalari rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida "Mahalla yettiligi faoliyati samaradorligini oshirish" mavzusida o'tkazilgan turli uchrashuvlar, seminar va boshqa tadbirlarni tashkil qilishda foydalanilib, ulani yuqori saviyada o'tkazishga xizmat qilgan.

bolalar o'rtasida yangi shakllanayotgan kvadroberlik holatlarini kamaytirishning "sotsio-emotsional integratsiya modeli" (jamoaviy o'zaro munosabatni hamjihatlik orqali kuchaytirish, axborot makonida ijobiy identifikatsiyani sotsiokommunikativ orqali shakllantirish va oilaviy hamdardlik muhitini interaktivlik orqali mustahkamlash) hamda ijtimoiy tarmoqlarda oilalar-maktab-mahalla hamkorligida "siz farzandingizni qanday eshitasiz?" milliy kontent dasturi asosida qisqa metrajli videoroliklar tayyorlashda hamda "hurmatga qadamlar" dasturini maktablarda qo'llash orqali tengdoshlar bilan do'stlikni saqlash va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, empatiya va ijobiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalar zo'ravonligini kamayishiga erishilishi "Farg'ona" telekanalining "Xayrli kun", "Yoshlar vaqti" ko'rsatuvlari, "Farg'ona" radiokanalining "Dolzarb mavzu" eshittirishini tayyorlashda taklif va tavsiyalaridan foydalanildi (O'zbekiston milliy

teleradiokompaniyasi “farg‘ona viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2025 yil «24» dekabrda № 01-12/266-sonli dalolatnomasi)

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash, odamlarni rozi qilish asosidagi barqaror taraqqiyotga erishish davlatning ustuvor siyosati va zamonaviy boshqaruvning ilg‘or tendensiyasi darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi zo‘ravonlik hodisalarining ortib borayotganligi, uning oldini olish uchun zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Jumladan, xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyat qozongan dasturlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotchi Karimova Maftuna Karimberdiyevna tomonidan ota-onalarning farzandiga beparvoligi va eshitmasligi oqibatida farzandlari ruhiy zo‘ravonlikka uchrashi hamda bola dipressiyaga tushishi va agressivlik holatlarini keltirib chiqarishi, o‘zini ma‘lum bir hayvon qiyofasida aks ettiruvchi aksessuarlardan foydalangan holda o‘sha jonzo‘tning xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali ota-onalarining e‘tiborini jalb etishga urinish holatlari kuzatilgani haqidagi ma‘lumotlaridan foydalanilib O‘zbekiston MTRK Farg‘ona TRK tomonidan efirga uzatilgan “kun mavzusi” dasturida keng foydalanildi .

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy qism 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti belgilangan, tadqiqot usullari ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilib, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e‘lon qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik fenomenini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan. Unda ijtimoiy himoya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi, zo‘ravonlik fenomeniga diniy, madaniy, psixologik, sotsiologik, falsafiy va tibbiy yondashuvlar, bolalar zo‘ravonligining jismoniy, ruhiy, jinsiy, ekspluatatsiya, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik va bulling kabi shakllari, shuningdek, kvadroberlik holatlarining kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Bobda AQSh, Buyuk Britaniya va Qozog‘iston tajribasi asosida maktablarda bolalar zo‘ravonligini

oldini olish siyosati va amaliy dasturlarini qiyosiy o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bobning birinchi paragrafida ijtimoiy himoya jamiyat barqarorligi, fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligi va zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida yoritilgan. Sharq mutafakkirlari merosida ham insonni himoya qilish, adolat, mehr-shafqat va ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari muhim o'rin egallagan. Xususan, Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyat konsepsiyasida adolat, tenglik va jamiyatning o'z a'zolari oldidagi mas'uliyati alohida ta'kidlangan²⁵. Tadqiqotda ijtimoiy himoya tushunchasining zamonaviy talqinlari ham tahlil qilinib, u nafaqat moddiy yordam, balki ijtimoiy xavflarni oldindan aniqlash, profilaktika qilish, shaxsni qo'llab-quvvatlash va uning jamiyatga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan kompleks tizim sifatida talqin qilingan. S.Devereux va R.Sabates-Wheeler ijtimoiy himoyani himoya qiluvchi, profilaktik, rag'batlantiruvchi va o'zgartiruvchi to'rtta asosiy yo'nalishga ajratadi²⁶. Mazkur yondashuv bolalar zo'ravonligining oqibatlarini bartaraf etish bilan bir qatorda, uning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy ish mexanizmlarini asoslashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Q.X.Abdurahmonov ijtimoiy himoyani aholining normal hayot faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlovchi davlat kafolatlari tizimi sifatida tavsiflaydi²⁷. Tadqiqotda zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining profilaktik va manzilli xususiyati umumta'lim maktablarida bolalar zo'ravonligini oldini olishda professional ijtimoiy ish faoliyatini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirishi asoslangan.

O'zbekistonda ham, maktab o'quvchilari o'rtasidagi zo'ravonlik hodisalaring ortib borayotganligi, uning oldini olish uchun zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyat qozongan dasturlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning 3-bob 8(g)-bandida "rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda umumta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish" belgilab qo'yildi²⁸. Hozirgi kunda bu yo'nalishda ham ishlar olib borilmoqda. Jamiyatdagi muammolarni klassik va zamonaviy sotsiologiya nazariyalariga tayanib, rivojlangan davlatlar tajribasida ijobiy samara bergan dasturlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib qo'llash orqali ijobiy yutuqlarga erishish mumkin. Jumladan, umumta'lim muassasalarida tobora avj olib borayotgan zo'ravonlikning oldini olishda ham. Sotsiologiya, huquqshunoslik yo'nalishida tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar ushbu jihatlarga asosiy e'tibor

²⁵ Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 245–246.

²⁶ Devereux S., Sabates-Wheeler R. *Transformative Social Protection*. – Institute of Development Studies, 2004.

²⁷ Abdurahmonov Q.H., Tohirova X.T., Sharipov B.M. *Aholini ijtimoiy muhofaza qilish*. – T.: TDIU, 2005. – B. 9.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/4312785>

qaratishlari bugungi kunning talabi bo'lib turibdi.

Bobning ikkinchi paragrafida maktabdagi zo'ravonlikning ijtimoiy mohiyati tahlil qilinib, uni faqat jismoniy tajovuz bilan cheklab bo'lmazligi asoslangan. JSST yondashuviga ko'ra, bolalarga nisbatan zo'ravonlik jismoniy, hissiy, jinsiy zo'ravonlik, beparvolik va ekspluatatsiyaning turli shakllarini o'z ichiga oladi²⁹. Dissertatsiyada bolalar zo'ravonligining jismoniy, jinsiy, ruhiy, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya va bulling kabi asosiy turlari tizimlashtirilgan.

Maktabdagi zo'ravonlikning keng tarqalgan shakllaridan biri bulling bo'lib, u bir yoki bir guruh bolalarning boshqa bolaga nisbatan muntazam va maqsadli jismoniy yoki ruhiy tajovuzi sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotda bulling bilan bir qatorda mobbing va zamonaviy axborot muhitida yuzaga kelayotgan kiberbullingning ham o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Kiberbulling elektron qurilmalar va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali o'zini himoya qilish imkoniyati cheklangan shaxsga nisbatan takroriy va qasddan amalga oshiriladigan tajovuzkor harakat sifatida talqin qilingan³⁰.

Dissertatsiyada maktabdagi bulling jarayonining uch asosiy ishtirokchisi - tajovuzkor (bullir), jabrlanuvchi va guvohlar ajratib ko'rsatilgan. Muallif fikricha, zo'ravonlik nafaqat jabrlanuvchi, balki uni kuzatib turgan o'quvchilarning xulq-atvori va keyingi ijtimoiylashuviga ham salbiy ta'sir qiladi. Zo'ravonlikka nisbatan befarqlik konform xulq shakllanishiga va kelgusida salbiy ijtimoiy stereotiplarning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin³¹. Shuningdek, paragrafda bolalar o'rtasida kuzatilayotgan kvadroberlik holati ham alohida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ushbu holat ayrim hollarda bolaning ota-ona va tengdoshlari tomonidan yetarli darajada e'tirof etilmasligi, e'tibor va tushunishga ehtiyojining qondirilmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi qayd etilgan.

Bobning uchinchi paragrafi "Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning xorij tajribasi" deb nomlanib, unda AQSh, Buyuk Britaniya, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda maktab zo'ravonligini oldini olish bo'yicha shakllangan institutsional va preventiv mexanizmlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda xorijiy tajribaning muhim xususiyati bolalarga nisbatan zo'ravonlikni sodir bo'lganidan keyin bartaraf etishdan ko'ra, erta aniqlash, majburiy xabar berish, xavf guruhlarini kuzatish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirishga yo'naltirilganligi ko'rsatilgan.

AQSh tajribasida bolaga nisbatan zo'ravonlik yoki qarovsizlik holati aniqlanganda ijtimoiy xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish mexanizmi muhim o'rin tutadi. O'qituvchi, shifokor, murabbiy va boshqa mutaxassislarning bunday holatlar to'g'risida xabar berishi majburiy bo'lib, ma'lumot yetkazgan shaxsning anonimligi va maxfiyligi huquqiy jihatdan kafolatlanadi.

Buyuk Britaniya tajribasida esa bolalarni himoya qilish mahalliy hokimiyat, sog'liqni saqlash tizimi, politsiya, maktab va ijtimoiy ish xizmatlarining o'zaro

²⁹ *Child abuse and neglect by parents and other caregivers*. World Health Organization.

³⁰ Smith P., Mahdavi J., Carvalho M., Fisher S., Russell S., Tippet N. Cyberbullying: its nature and impact in secondary school pupils // *Journal of Child Psychology and Psychiatry*. 2008. 49(4). – P. 376–385.

³¹ Yunusov A., Madraximov A. O'zbekistonda maktab o'quvchilari orasida zo'ravonlik holatlari (bullingni) namoyish bo'lish xususiyatlari va bunga sabab bo'luvchi omillar // *Strategik kuch*. 2022. №1. – B.109–128

hamkorligi asosida tashkil etilgan. Maktab xodimlari bolalar xavfsizligi bo'yicha muntazam tayyorgarlikdan o'tadi va ta'lim muassasasi bolaning xavfsizligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri sifatida qoraladi.

Qozog'iston tajribasida maktab zo'ravonligining oldini olishda direktor, o'qituvchi, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy ishchi, psixolog, maktab inspektori, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va o'quvchilarni birlashtiruvchi kompleks hamkorlik modeli shakllantirilgan. Tadqiqotda ushbu tajribaning O'zbekiston sharoiti uchun ahamiyatli jihati — zo'ravonlik profilaktikasini alohida bir mutaxassis zimmasiga yuklash emas, balki maktab miqyosida faoliyat yurituvchi yaxlit xavfsizlik tizimini yaratish ekanligi qayd etilgan.

Xorij tajribasining qiyosiy tahlili maktab zo'ravonligini kamaytirishda OBPP, KiVa, Positive Action, SAVE, Bulli & Pupe kabi kompleks profilaktik dasturlarning samaradorligi mavjudligini ko'rsatgan. Xususan, D.Olveus dasturini baholash natijalarida zo'ravonlik va bezorilik holatlarining qariyb 50 foizga kamaygani qayd etilgan. Ushbu dasturlarning umumiy metodologik xususiyati "bola-oila-maktab-mahalliy hamjamiyat-jamiyat" o'rtasidagi tizimli hamkorlikka asoslanishidir.

Shu asosda dissertatsiyada xorij mamlakatlarida samarali natija bergan dasturlarning ayrim komponentlarini milliy ijtimoiy-madaniy sharoitga moslashtirib, umumta'lim maktablarida ijtimoiy ish xodimi, oila, maktab va mahalla hamkorligiga asoslangan preventiv tizimni takomillashtirish zarurligi asoslangan.

Shu bilan birga jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasini Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2023-yil 1-iyundagi — "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda og'ir hayotiy ahvolga tushib qolganlarga aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish maqsadida ijtimoiy ish sohasida faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasini Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning hududiy bo'linmalarida va shahar, tumanlarida — "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonliklarning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2024-yil 14-noyabrda Prezidentimiz tomonidan imzolanib, 2025 yil 15 maydan kuchga kirgan bu qonun 5 ta bob, 49 moddadan iborat. Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'ravonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta'qib qilinadi"³². Bundan tashqari, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga mas'ul davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, ularning vakolatlari belgilandi, shuningdek, bolalarni

³² O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.11.2024 yildagi O'RQ-996-son Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/docs/-7219502>

zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning (yoki ularning o‘rni bosuvchi shaxslarning) ishtiroki, ularning majburiyatlari, ta‘lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmaslik qonun bilan qat‘iyan belgilab qo‘yildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Ta‘lim tizimida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasini olib borishda ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining ahamiyati” deb nomlanib, unda umumta‘lim maktablarida zo‘ravonlikning oldini olishda ijtimoiy ish xodimining kasbiy funksiyalari, O‘zbekiston ta‘lim tizimida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasining huquqiy va institutsional asoslari hamda oiladagi zo‘ravonlik profilaktikasida ijtimoiy ish xodimi faoliyatining zarurati tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy ish xodimining erta aralashuv, maslahat, qo‘llab-quvvatlash, madaniy kompetensiya, jamoat xizmatlari bilan hamkorlik qilish va zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalar hamda oilalarga kompleks yordam ko‘rsatish funksiyalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bobning birinchi paragrafi “Maktablarda bolalar zo‘ravonligining oldini olishda ijtimoiy ish xodimlarining roli va ahamiyati” deb nomlangan. Unda maktab muhiti bolalar bilan muntazam aloqa mavjudligi sababli zo‘ravonlikni erta aniqlash va profilaktika qilish uchun muhim ijtimoiy makon ekanligi asoslangan. Ijtimoiy ish xodimi maxsus kasbiy bilim va ko‘nikmalari orqali xavf guruhidagi o‘quvchilarni aniqlash, ularning ehtiyojlarini baholash va zarur ijtimoiy xizmatlardan foydalanishini ta‘minlash imkoniyatiga ega.

Tadqiqotda erta aralashuv bolalar zo‘ravonligi profilaktikasining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida baholangan. Zo‘ravonlik belgilarini o‘z vaqtida aniqlash, xavf omillarini baholash hamda bolaning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib yordam rejasini ishlab chiqishda ijtimoiy ish xodimining maktab psixologi, pedagoglar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorligi muhimligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, ijtimoiy ish faoliyatining samaradorligi madaniy kompetensiya va multidisipliner hamkorlik bilan bog‘liqligi asoslangan. Ijtimoiy ish xodimi o‘quvchining madaniy muhiti, qadriyatlari va oilaviy xususiyatlarini hisobga olishi, maktab, oila, bolalarni himoya qilish xizmatlari, ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislar hamda boshqa tegishli tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishi lozim. Bunday yondashuv zo‘ravonlikka uchragan bola va uning oilasiga kompleks yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Dissertant tomonidan olib borilgan nazariy tahlillar asosida maktabdagi ijtimoiy ish xodimining zo‘ravonlik profilaktikasidagi faoliyati identifikatsiya va hisobot, erta aralashuv, multidisipliner hamkorlik, madaniy kompetensiya, travmadan xabardor amaliyot, siyosat ishlab chiqish, ta‘lim va xabardorlikni oshirish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda tizimlashtirilgan. Ijtimoiy ish xodimi maktab, bola, oila va bolalarni himoya qilish organlari o‘rtasidagi asosiy muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida baholangan. Bunda travmadan xabardor yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Zo‘ravonlik oqibatidagi ruhiy jarohatning bolaning rivojlanishi va xulq-atvoriga ta‘sirini hisobga olish ijtimoiy ish xodimiga xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi maktab muhitini yaratish, bolaning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy barqarorligini tiklashga yo‘naltirilgan individual choralarni belgilash imkonini beradi.

Umumta‘lim maktablarida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasining samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy ish xodimining kasbiy faoliyatini maktabning

umumiy xavfsizlik tizimiga integratsiya qilish zarur. Bunda ijtimoiy ish xodimi nafaqat zo‘ravonlik sodir bo‘lganidan keyin yordam ko‘rsatuvchi mutaxassis, balki zo‘ravonlik xavfini oldindan aniqlovchi, profilaktik dasturlarni tashkil etuvchi va oila–maktab–ijtimoiy xizmatlar hamkorligini muvofiqlashtiruvchi professional subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Bobning ikkinchi paragrafida bola huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston ta’lim tizimida bolalarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash mexanizmlari hamda zo‘ravonlik profilaktikasining institutsional rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston ta’lim tizimida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik profilaktikasining kontent tahlili amalga oshirilgan. Unda dastlab bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, jumladan, 1924-yildagi Jeneva deklaratsiyasi, 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda 1989-yildagi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning mazmuni tahlil qilingan. Mazkur konvensiyada bolalarning ta’minlanish, himoyalaniish va jamiyat hayotida ishtirok etish huquqlari belgilangan bo‘lib, u kamsitmaslik, bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta’minlash, yashash va rivojlanish huquqi hamda bolaning fikrini inobatga olish tamoyillariga asoslanadi³³.

Tadqiqotda O‘zbekistonda bola huquqlari va zo‘ravonlik profilaktikasiga oid me’yoriy-huquqiy bazaning shakllanishi yetti bosqichga ajratilgan: 1991–1995, 1996–2000, 2001–2005, 2006–2010, 2011–2016, 2017–2021 hamda 2022-yildan hozirgi davrgacha. Muallifning mazkur davrlashtirishi bola huquqlarini himoya qilish tizimining dastlab xalqaro normalarni ratifikatsiya qilishdan boshlab, keyinchalik milliy qonunchilikni chuqurlashtirish, ta’lim tizimidagi profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish va professional ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishga qadar rivojlanganligini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonda 2008-yilda kuchga kirgan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun alohida ahamiyat kasb etib, unda bolaga nisbatan ekspluatatsiya va zo‘ravonlikning barcha shakllarini oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda jabrlangan bolalarga pedagogik, psixologik, tibbiy va yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat majburiyatlari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida bullingning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish vazifasi belgilanganligi alohida ko‘rsatilgan³⁴.

Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shundaki, 2022-yildan boshlab O‘zbekistonda bola huquqlarini ta’minlash va ijtimoiy himoya tizimi yangi institutsional bosqichga ko‘tarilgan. Xususan, 2023-yilda professional ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgan. Ushbu tizim og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan shaxs va oilalarga individual yondashuv asosida ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni nazarda tutadi.

³³ *Convention on the Rights of the Child*. UNICEF.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

Ayniqsa, 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan O‘RQ–996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun tadqiqotda bola himoyasining yangi huquqiy bosqichi sifatida baholangan. Mazkur qonunda jismoniy, jinsiy, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya va bulling bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllari sifatida belgilangan, barcha shakldagi zo‘ravonlik taqiqlangan hamda ta’lim tashkilotlari va ota-onalarning majburiyatlari mustahkamlangan³⁵.

Bobning uchinchi paragrafida oiladagi zo‘ravonlik bolaga eng yaqin ijtimoiy muhitda sodir bo‘lishi sababli uning oqibatlari yanada murakkab ekanligi asoslangan. Tadqiqotda oilaviy zo‘ravonlik bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishi, maktabdagi o‘zlashtirishi va ijtimoiylashuviga uzoq muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

Zo‘ravonlikdan jabrlangan bolaga yordam ko‘rsatishda ijtimoiy ish xodimining vazifasi muammoni yolg‘iz hal qilish emas, balki psixolog, tibbiyot xodimi va boshqa mutaxassislarni jalb etgan holda kompleks yordamni muvofiqlashtirishdan iborat ekanligi ko‘rsatib berilgan. Psixologik yordam bolaning ruhiy holatini baholash, individual xususiyatlarini aniqlash, ichki resurslarini safarbar qilish, ijtimoiy dezadaptatsiyani kamaytirish va yaqin ijtimoiy muhitni rehabilitatsiya jarayoniga jalb qilishga yo‘naltiriladi.

Dissertatsiyada oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalar bilan ishlashda art-terapiya, qum terapiyasi, o‘yin terapiyasi va kognitiv-xulqiy yondashuv kabi usullar samarali rehabilitatsion vositalar sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu yondashuvlar posttravmatik stress holatlarini kamaytirish va bolaning normal ijtimoiy faoliyatga qaytishiga ko‘maklashishga qaratilgan.


Oilada bolalar zo‘ravonligini oldini olish faqat huquqiy taqiq yoki ma’muriy choralar bilan cheklanmasligi lozim. Bunda oila institutini mustahkamlash, ota-onalarning mas’uliyatini oshirish, bolaning ruhiy holatini erta baholash va ijtimoiy ish xodimi boshchiligida kompleks, terapevtik va preventiv yordamni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bob yakunida umumta’lim maktablarida bolalar zo‘ravonligini oldini olishda ijtimoiy ish xodimining professional faoliyati va uning institutsional hamkorlikdagi o‘rni asoslab berilgan. Jahon tajribasida ijtimoiy ish xodimi shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish, xavfdan himoya qilish, rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashuvni ta’minlashga xizmat qiluvchi professional mutaxassis sifatida shakllanganligi ta’kidlangan. O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga oid qonunchilik bazasi jadal rivojlanganligini qayd etib, 1991–2016-yillarda ushbu yo‘nalishda 24 ta qonun qabul qilingan bo‘lsa, 2017–2024-yillarda 40 dan ortiq huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, umumta’lim maktablari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, maktabda ijtimoiy ish malakasiga ega mutaxassis faoliyatini rivojlantirish bolani qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslangan.

³⁵ O‘RQ–996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Ta’lim tizimida zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarni himoyalashda ijtimoiy ish kasbiy faoliyati samaradorligini aniqlash” deb nomlanib, unda zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarning ijtimoiy portreti, umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari hamda bolalar zo‘ravonligi profilaktikasida ijtimoiy ishning amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan.

Bobning birinchi paragrafida maktabdagi muammolar uchta asosiy guruhga — o‘quvchining individual muammolari, oila muhiti bilan bog‘liq muammolar va maktab ta’limi tizimidagi muammolarga ajratilgan.¹⁹¹ Bunday tasnif zo‘ravonlikni faqat o‘quvchining individual xatti-harakati bilan emas, balki uning oila va maktabdagi ijtimoiy muhiti bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Empirik tadqiqot Farg‘ona shahridagi 6-sonli umumta’lim maktabi, Marg‘ilon shahridagi 1-sonli IDUM va 20-sonli umumta’lim maktabida tahsil olayotgan 350 nafar 6–11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida anonim anketa so‘rovi shaklida o‘tkazilgan. Respondentlarning 56 foizini qizlar, 44 foizini o‘g‘il bolalar tashkil etgan. So‘rov natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 46 foizi zo‘ravonlikni inson va hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat, 40 foizi esa kuchsizlarga tahdid va jismoniy ustunlik sifatida tushungan.



1-rasm. Maktablarda o‘quvchilar o‘rtasidagi zo‘ravonlik holatining mavjudlik holati


“Maktabingizda o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik holatlari uchrab turadimi?” degan savolga respondentlarning 39 foizi “ha, ba’zida”, 18 foizi “ha”, 26 foizi “bilmayman”, 15 foizi “yo‘q” deb javob bergan. Ushbu ko‘rsatkichlar maktab muhitida zo‘ravonlik holatlari mavjudligini va ularning muntazam profilaktik monitoringini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi (1-rasmga qarang).

Zo‘ravonlik shakllarini aniqlash bo‘yicha so‘rov natijalarida respondentlarning 22 foizi g‘iybat va tuhmat, 17 foizi ajratish va yakkalab qo‘yish, 14 foizi qasddan turtish, 9 foizi haqorat va so‘kinish, 9 foizi laqab qo‘yish, shuningdek, ayrimlari qo‘rqitish, tovlamachilik, tan jarohati yetkazish va guruh bo‘lib urish kabi holatlarga duch kelganini bildirgan. Bu natijalar maktab zo‘ravonligi faqat jismoniy emas, balki ruhiy va ijtimoiy izolyatsiya shakllarida ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Zo‘ravonlikning kelib chiqish omillarini aniqlashda respondentlarning 27 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlarni, 22 foizi maktab muhitini, 22 foizi oiladagi muhitni va 21 foizi do‘stlar ta’sirini asosiy omil sifatida ko‘rsatgan. Shuningdek, zo‘ravonlikning individual sabablarida 25 foiz respondent “o‘zini ko‘rsatish istagi”, 24 foizi kamchiliklarini yashirish, 18 foizi “alamini boshqalardan olish”, 16 foizi esa qasos olish istagini qayd etgan.

Oiladagi zo‘ravonlik omillarini aniqlash bo‘yicha respondentlarning 38 foizi

oilada muhabbat yetishmasligini, 26 foizi oilaviy nizolarni, 15 foizi ota-onaning hissiy befarqligini, 9 foizi ichkilikbozlik va giyohvandlikni asosiy sabablar sifatida ko'rsatgan. Muallif mazkur natijalar asosida ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyasi va bolaga nisbatan hissiy munosabati maktabdagi zo'ravon xulq-atvorning shakllanishida muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.



2-rasm. O'quvchilar o'rtasidagi zo'ravonlikka guvohlik berish

Zo'ravonlik sodir bo'lganda yordam so'rash masalasida respondentlarning 38 foizi ota-onasiga, 17 foizi sinf rahbari yoki o'qituvchiga, 14 foizi profilaktika inspektoriga, 14 foizi do'st va tanishlariga murojaat qilishini qayd etgan. Shu bilan birga, zo'ravonlik holatiga guvoh bo'lganda respondentlarning 33 foizi jabrlanuvchini himoya qilishi natijasida o'zi ham bezovta qilina boshlaganini, 25 foizi himoya qilishga urinishi, biroq buning foydasi kamligini bildirgan. Muallif ushbu natijalarni maktablarda "tengdosh–tengdoshga" qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurati bilan izohlaydi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida Marg'ilon shahridagi 20-sonli umumta'lim maktabining 800 nafar o'quvchisini qamrab olgan "Maktabdagi bolalar o'rtasidagi zo'ravonlikni oldini olish uchun ijtimoiy pasport yaratish" mavzusidagi empirik tadqiqot tashkil etilgan. Maktab va mahalla hamkorligida ijtimoiy-pedagogik, psixologik va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash xizmati tashkil etilib, ish jarayoni mahalla ijtimoiy xodimlari amaliyotida qo'llanayotgan keys-menejmentning besh bosqichli mexanizmi asosida olib borilgan.

Ijtimoiy pasportni shakllantirish jarayonida maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, psixolog va sinf rahbarlari ishtirokida o'quvchilar anketa, suhbat va kuzatuv usullari orqali o'rganilgan. Natijada 260 nafar o'quvchi zo'ravon yoki zo'ravonlikdan jabrlanuvchi toifasiga mansubligi aniqlangan. Tadqiqotda mazkur holatlarni kamaytirish uchun maktabdagi ma'naviy-ijtimoiy muhitni yaxshilash hamda uzluksiz profilaktik faoliyat olib borish zarurligi asoslangan.

Bobning ikkinchi paragrafidagi tadqiqotlar Buxoro, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona hududlaridagi umumta'lim maktablarining 494 nafar pedagog xodimi ishtirokida o'tkazilgan bo'lib, respondentlarning 79 foizini ayollar, 21 foizini erkaklar tashkil etgan.

Pedagoglar tomonidan maktabdagi zo'ravonlik shakllari baholanganda 29 foiz respondent tuhmat va nohaq ayblashni, 19 foizi g'iybatni, 18 foizi haqorat va so'kinishni, 13 foizi laqab qo'yishni, 13 foizi jismoniy zo'ravonlikni ko'rsatgan.

Hududlar kesimidagi tahlilda esa psixologik zo‘ravonlik eng tashvishli shakl sifatida qayd etilgan: Buxoroda 43 foiz, Samarqandda 33 foiz, Farg‘onada 24 foiz va Surxondaryoda 44 foiz.

Zo‘ravonlik subyektlarini aniqlashga qaratilgan savollarda respondentlarning 34 foizi o‘quvchilar ko‘proq sinfdoshlari, 28 foizi oila a‘zolari, 23 foizi yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan zo‘ravonlikka uchrashini ko‘rsatgan. Mazkur natijalar zo‘ravonlik profilaktikasini faqat maktab doirasida emas, balki oila va tengdoshlar muhitini ham qamrab olgan holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Maktab zo‘ravonligining kelib chiqish sabablariga doir pedagoglar fikri ham alohida o‘rganilgan. Respondentlarning 49 foizi oiladagi ijtimoiy muhitni, 29 foizi ijtimoiy tarmoqlar ta‘sirini, 13 foizi do‘stlar ta‘sirini va 8 foizi maktabdagi ijtimoiy muhitni asosiy sabab sifatida ko‘rsatgan. Muallif mazkur natijalardan kelib chiqib, oiladagi qattiqqo‘llik, bolaning ehtiyojlarini e‘tiborsiz qoldirish va ota-onalarning salbiy xatti-harakatlari bolada zo‘ravonlikka moyillik shakllanishining muhim omillari ekanligini ta‘kidlaydi.

Tadqiqotda pedagoglarning ijtimoiy ish xodimi faoliyatidan xabardorlik darajasi ham aniqlangan. “O‘quvchilar o‘rtasidagi zo‘ravonlik profilaktikasida ijtimoiy xodim tomonidan ko‘rsatiladigan kompleks yordam haqida bilasizmi?” degan savolga respondentlarning 38 foizi “yo‘q”, 36 foizi “qisman”, 26 foizi “ha” deb javob bergan. Bu holat umumta‘lim maktablarida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining mazmuni va imkoniyatlari to‘g‘risida pedagoglarning xabardorligini oshirish zarurligini ko‘rsatgan.

Maktabni “o‘quvchilar farovonligi hududi” ga aylantirishda qaysi mutaxassis yordami zarurligi bo‘yicha respondentlarning 80 nafari ijtimoiy ish xodimini, 61 nafari maktab psixologini, 48 nafari maktab direktorini va 33 nafari mahalla faollarini ko‘rsatgan. Shu asosda muallif zo‘ravonlikning sabablarini erta aniqlash va oqibatlarini yumshatishda “maktab–mahalla–oilal” hamkorligini kuchaytirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, maktab zo‘ravonligiga qarshi kurash uchun zarur resurslar bo‘yicha respondentlarning 33 foizi ijtimoiy ish xodimlari xizmatlarini, 30 foizi psixologik yordam markazlarini, 16 foizi tezkor aralashuv mexanizmlarini, 15 foizi trening va malaka oshirish kurslarini ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalari mazkur resurslarning aksariyati professional ijtimoiy ish faoliyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu asosda maktabdagi zo‘ravonlik profilaktikasining samaradorligi ijtimoiy ish xodimi–psixolog–pedagog–oilal–mahalla–huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bog‘liq, degan xulosaga kelgan. Respondentlar ham oila va maktab hamkorligi, o‘quvchilarni muntazam kuzatish, psixolog va ichki ishlar xodimlari bilan yaqin aloqa, ota-onalar bilan samimiy muloqot hamda idoralararo hamkorlikni kuchaytirishni muhim deb hisoblagan.

Bobning uchinchi paragrafida bolalar zo‘ravonligini oldini olishda xalqaro va milliy preventiv yondashuvlar, ijtimoiy ish xodimining maktab va mahalla bilan hamkorligi hamda profilaktika samaradorligini baholash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 5.2, 16.1 va 16.2-maqsadlari zo‘ravonlikning turli shakllarini kamaytirish va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berishga qaratilganligi qayd etilgan. Shuningdek, JSST boshchiligidagi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan INSPIRE dasturi

bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirishga xizmat qiluvchi yetti strategiyani — qonunlarni amalga oshirish, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o‘zgartirish, xavfsiz muhit yaratish, ota-onalar va tarbiyachilarni qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy mustahkamlash, yordam xizmatlarini tashkil etish hamda ta’lim va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni qamrab oladi³⁶.

O‘zbekiston sharoitida mazkur preventiv yondashuvni amalga oshirishda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahalla ijtimoiy ish xodimlarining oila muhitini o‘rganish, ehtiyojlarni baholash va keys-menejment asosida manzilli ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan. Tadqiqot doirasida maktab ma’muriyati va mahalla ijtimoiy ish xodimining hamkorligida maktabdagi zo‘ravonlik holatini baholashning maxsus mexanizmlari ishlab chiqilgan.

1-jadval

Maktablarda zo‘ravonlik holatini baholashning asosiy mexanizmlari

№	Mexanizm	Amalga oshirish shakli	Mas’ul tomonlar	Natija
1.	Anketa	Zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha anonim anketa o‘tkazish	Ijtimoiy xodim, sinf rahbarlari	Zo‘ravonlikning darajasi, ko‘rinishlari va tarqalish maydonlari aniqlanadi
2.	Ekspert intervyular	Individual yoki guruhii suhbatlar	Ijtimoiy ish xodimi	Muammolarning chuqur sabablarini aniqlandi
3.	Nazorat	Dars jarayoni va tanaffuslarda o‘quvchilarning o‘zaro munosabatini kuzatish	Ijtimoiy ish xodimi, o‘qituvchilar, psixolog	O‘quvchilar orasida yashirin zo‘ravonlik holatlarini aniqlanadi
4.	Maktabdagi ishonch qutisi	Maktabda shikoyat va murojaatlar qutisi tashkil qilish	Maktab ma’muriyati, ijtimoiy ish xodimi	O‘quvchilarga xavfsiz holatda muammo haqida xabar berish imkoniyati kuchaydi
5.	hujjatlarni o‘rganish usuli	Sinf jurnallari, tibbiy ma’lumotlar tahlili	Ma’muriyat, ijtimoiy ish xodimi	Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholanadi
6.	Ruhiy tashxis	O‘quvchilarning hissiy holatini aniqlash	Maktab psixologi, ijtimoiy ish xodimi	Stress, tajovuzkorlik va xavf darajasini baholanadi
7.	O‘zaro hamkorlik	Mahalla, inspektorlar, tibbiyot xodimlari bilan axborot almashish	Maktab ma’muriyati, ijtimoiy ish xodimi	Kompleks yondashuv va tezkor choralar ko‘riladi
8.	Monitoring faoliyatini doimiy qilish	Zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha muntazam hisobot yuritish	Ijtimoiy ish xodimi, maktab ma’muriyati	Dinamikani kuzatish va profilaktika samaradorligini baholanadi

Dissertatsiyada ijtimoiy ish xodimining maktabdagi bolalar zo‘ravonligi profilaktikasi samaradorligini baholash uchun miqdoriy, sifat, jarayon va natija indikatorlari ishlab chiqilgan. Miqdoriy indikatorlarga zo‘ravonlik holatlari soni, trening va seminarlar miqdori, ijtimoiy ish xodimiga murojaat qilgan o‘quvchilar soni hamda profilaktika dasturlarida ishtirok darajasi kiritilgan. Sifat indikatorlari o‘quvchilarning zo‘ravonlikka munosabatidagi ijobiy o‘zgarish, ota-ona va o‘qituvchilarning xabardorlik darajasi, empatiya va hurmat muhitining shakllanishi

³⁶ INSPIRE – bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik dastur, 2016.

bilan belgilanadi.

2-jadval

Ijtimoiy ish xodimining maktabdagi bolalar zo‘ravonligi profilaktikasi samaradorligini baholash indikatorlari

№	Indikator turi	Ko‘rsatkichlar
1.	Miqdoriy ko‘rsatkichlar	Bolalar zo‘ravonligi holatlarining soni (yil davomida kamayishi/ oshishi)
		Trening, seminar va uchrashuvlar soni
		Ijtimoiy ish xodimi bilan maslahatlashgan o‘quvchilar va o‘qituvchilar soni
		Anonim murojaat va shikoyatlar statistikasi
		Profilaktika dasturlarida ishtirok etgan o‘quvchilar ulushi (%)
2.	Sifat	O‘quvchilarning bolalar zo‘ravonligiga nisbatan ijobiy o‘zgarishlari (so‘rovnomalar tahlili)
		Ota-ona va o‘qituvchilar xabardorlik darajasining oshishi
		Maktabda empatiya, hurmat va hamkorlik muhitining shakllanishi
		O‘quvchilarda konfliktlarni tinch hal qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi
3.	Jarayon	Muntazam ravishda ma‘ruzlar, treninglar va rolli o‘yinlar tashkil etish
		O‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilishi
		Anonim qutilar, ishonch telefonlari, onlayn murojaatlar
		Maktablarda zo‘ravonlikka “nol bardoshlilik” siyosatini ishlab chiqish va amalda qo‘llanilishi
4.	Natija	Maktablarda bolalar zo‘ravonligi bilan bog‘liq konfliktlar soning kamayishi
		O‘quvchi va ota-onalarning ijtimoiy ish xodimiga ishonchi ortishi
		“Sog‘lom oila- xavfsiz bola” dasturi orqali oilada sog‘lom psixologik muhitning shakllanishi
		Zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarning o‘zini baholash va o‘qishga bo‘lgan qiziqish darajasining oshishi

Natija indikatorlari esa maktabdagi konfliktlar sonining kamayishi, o‘quvchi va ota-onalarning ijtimoiy ish xodimiga ishonchi ortishi, “Sog‘lom oila – xavfsiz bola” dasturi doirasida oiladagi psixologik muhitning yaxshilanishi hamda zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi va ta’limga qiziqishining oshishi bilan ifodalangan.

Tadqiqotda maktab bolalar o‘z vaqtining katta qismini o‘tkazadigan asosiy ijtimoiy makon sifatida baholanib, zo‘ravonlik profilaktikasida xavfsiz muhit yaratish, o‘quvchilarning huquqiy va ijtimoiy xabardorligini oshirish, pedagoglarning erta aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, psixolog va ijtimoiy ish xodimining hamkorligini mustahkamlash, ota-onalar bilan tizimli ishlash, qat’iy profilaktik siyosat hamda muntazam monitoringni yo‘lga qo‘yish zarurligi asoslangan. Maktabdagi zo‘ravonlikka nisbatan “nol bardoshlilik” siyosatini joriy etish va “Hurmatga qadamlar” dasturidan foydalanish tengdoshlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni saqlash, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, empatiya va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali zo‘ravonlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Preventiv yondashuvning samaradorligi maktab, oila, mahalla va jamoatchilikning faol hamkorligiga bog‘liq ekanligi asoslangan.

Uchinchi bob yuzasidan umumlashtirilgan xulosalarda O‘zbekistonda maktab ijtimoiy ishini professional asosda rivojlantirish, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zo‘ravonlikni erta aniqlash va o‘z vaqtida kompleks yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, maktabni “farovonlik hududi”ga aylantirish, ota-onalar bilan tizimli ishlash, o‘quvchilarni ijtimoiy diagnostika qilish, idoralararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va oilalarning ijtimoiy muhitini doimiy o‘rganish tavsiya etilgan.

XULOSA

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bolalar zo‘ravonligi profilaktikasida ijtimoiy ish samaradorligini baholash mexanizmlari” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Zo‘ravonlik bir shaxsning ikkinchi shaxsga ruhiy yoki jismoniy bosim o‘tkazishi natijasida uning hayot farovonligi, xavfsizligi, ruhiy holati va ta’lim olish imkoniyatiga maqsadli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda bolalar zo‘ravonligi beparvolik, bulling, mobbing hamda yangi submadaniy ko‘rinishlar bilan bog‘liq holatlar kesimida tahlil qilingan.
2. Umumta’lim maktablarida zo‘ravonlikning kelib chiqishiga oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit, ota-ona va bola o‘rtasidagi iliq munosabatlarning yetishmasligi, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi mehr-oqibatning sustligi, bolaga nisbatan haddan tashqari nazorat hamda qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi kabi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.
3. Zo‘ravonlik ijtimoiy hodisa sifatida kompleks sotsiologik yondashuv asosida o‘rganilganda, uning sabablarini erta aniqlash va oldini olish imkoniyati kengayadi. Shu bois umumta’lim maktablarida professional ijtimoiy ish xodimi tomonidan ko‘rsatiladigan kompleks yordam maktabni “farovonlik maskani”ga aylantirishning muhim shartlaridan biri ekanligi asoslangan.
4. Tadqiqot natijalari bolalar zo‘ravonligi profilaktikasida maktab, oila, mahalla, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, psixolog, profilaktika inspektori va boshqa mutaxassislar o‘rtasidagi idoralararo hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatgan. Ayniqsa, zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash, bolaning ijtimoiy holatini diagnostika qilish va unga individual yordam ko‘rsatishda ijtimoiy ish xodimining muvofiqlashtiruvchi roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliy taklif va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

birinchidan, umumta’lim maktablarida zo‘ravonlik va bezorilik holatlarini oldini olish hamda nizolarni barqarorlashtirish maqsadida maktab faollari, mahalladagi obro‘-e’tiborli shaxslar va jamoatchilik institutlari hamkorligida mediativ xizmat tizimini rivojlantirish;

ikkinchidan, oila–maktab–mahalla hamkorligi doirasida zo‘ravonlik sodir etuvchi o‘quvchida o‘z xatti-harakatining jabrlanuvchiga ta’sirini anglashga

qaratilgan refleksiv va empatik tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish;

uchinchidan, maktabdagi zo'ravonlikka nisbatan preventiv chora sifatida umumta'lim muassasalarida "maktab – farovonlik maskani" konsepsiyasini joriy etish;

to'rtinchidan, maktab ma'muriyati, maktab psixologi va mahalla ijtimoiy ish xodimi hamkorligida o'quvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirokida treninglar, suhbatlar, kuzatuvlar, konsultatsiyalar va tezkor aralashuv tadbirlarini muntazam tashkil etish;

beshinchidan, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida zo'ravonlik tushunchasi, uning turlari, oqibatlar hamda himoyalash mexanizmlari yuzasidan keng tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish;

oltinchidan, umumta'lim maktablarida zo'ravonlik sodir etuvchi va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi o'quvchilarni erta aniqlash maqsadida o'quvchilarning ijtimoiy pasportini ishlab chiqish va undan profilaktik faoliyatda tizimli foydalanish;

yettinchidan, ijtimoiy ish xodimlari, profilaktika inspektorlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yib, zo'ravonlikka uchragan bolalarning psixologik himoyasi, ijtimoiy rehabilitatsiyasi va xavfsizligini ta'minlash;

sakkizinchidan, bolalar zo'ravonligi oqibatidagi ijtimoiy, psixologik va jismoniy jarohatlarni o'z vaqtida aniqlash uchun psixolog, pediatr va boshqa tibbiyot mutaxassislari bilan kompleks hamkorlikni kuchaytirish;

to'qqizinchidan, Bolalar huquqlari bo'yicha vakil, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy ish xizmatlarining bolalar zo'ravonligi profilaktikasi bo'yicha hamkorligini rivojlantirish;

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.04/2025.27.12.S.01.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ**

УЗБЕКИСТАН
ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРИМОВА МАФТУНА КАРИМБЕРДИЕВНА

**МЕХАНИЗМЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ
РАБОТЫ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ДЕТСКОГО НАСИЛИЯ В
УЧРЕЖДЕНИЯХ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

22.00.02– Социальная структура, социальные институты и образ жизни

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на доктора философии (PhD) по социологии

ТАШКЕНТ – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под регистрационным номером B2023.1.PhD/S135.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский) на сайте Научного совета (www.dba.uz/uz/avtoreferatlar) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Абдурахмонова Манзура Манофовна
доктор социологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Сабиров Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc), и.о. профессора
Юнусов Алишер Бобомурадович
кандидат социологических наук, доцент

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится 18 августа 2026 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.04/2025.27.12.S.01.02, уполномоченного присуждать ученые степени и созданного при Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан. (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 45. Тел.: 0(371) 232-60-47; факс: 0(371)239-17-83, e-mail: info@dba.uz Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан., 2 этаж, кабинет 220).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (зарегистрирована под № 390). Адрес: 100066, Республика Узбекистан, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 45. Тел.: +998 (71) 232-60-47; факс: +998 (71) 239-17-83; e-mail: info@dba.uz. Административное здание Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан, 2-й этаж, кабинет 203.

Автореферат диссертации разослан "14" августа 2026 года.

(протокол реестра рассылки № __ от " ____ " _____ 2026 года .)

М.Б.Бекмуродов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор.

Ш.М.Содикова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор.

Т.Б.Магибаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность темы диссертации. В настоящее время насилие и пренебрежительное отношение к детям относятся к числу наиболее острых проблем, рассматриваемых мировым сообществом. В принятой на международном уровне Конвенции о правах ребёнка закреплены гарантии защиты детей от всех форм насилия, психологического и физического воздействия, унижения достоинства и эксплуатации. В резолюции Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций отмечается нарастающее распространение насилия в глобальном масштабе, что приводит к нарушениям прав детей, а также подчёркивается, что жертвы насилия на протяжении длительного времени испытывают его негативные последствия. В рамках данной резолюции государствам-членам рекомендовано разрабатывать и внедрять меры по защите детей от насилия в образовательных учреждениях¹. Согласно данным глобального доклада ЮНЕСКО «Школьное насилие и буллинг», ежегодно около 246 миллионов детей и подростков во всём мире подвергаются насилию и различным формам преследования в школе². По информации Детского фонда Организации Объединённых Наций (ЮНИСЕФ), более 130 миллионов детей в возрасте от 13 до 15 лет становятся жертвами школьного насилия (буллинга)³.

В ведущих научных школах, университетах и исследовательских институтах мира проводятся масштабные научные исследования, посвящённые профилактике насилия. В данном направлении разработаны эффективные комплексные программы предупреждения насилия в образовательной среде. Особое внимание уделяется вопросам формирования безопасной школьной среды, защиты прав ребёнка, воспитания культуры ненасильственного поведения среди учащихся, обеспечения безопасности детей, а также создания благоприятных условий для получения образования. В образовательных учреждениях развитых стран значительную роль в выявлении, предупреждении и преодолении различных форм насилия в отношении детей играют социальные работники. Высокую значимость приобретают своевременное выявление факторов риска, развитие культурной компетентности специалистов, сотрудничество с общественными службами, продвижение социальных изменений, а также оказание всесторонней поддержки детям, пострадавшим от насилия, и их семьям. Социальные работники вносят значительный вклад в формирование в образовательных учреждениях безопасной, позитивной и благоприятной воспитательной среды для детей.

В Новом Узбекистане обеспечение человеческого достоинства и достижение устойчивого развития на основе принципа служения интересам

¹ BMT Bosh Assambleyasi 2014-yilda 69/158 sonli rezolyutsiyasi

² G'aybulloyev A. O'quvchilarida bulling xulq-atvorni barqarorlashtirishning psixologik omillari.//Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. 12(6)2024.-B.214.

³ Unicef O'zbekiston "Bola bilan bulling haqida qanday gaplashish kerak". www.unicef.org/uzbekistan/uz/kak-razgovarivat-s-rebenkom-o-bullinge

граждан возведены в ранг приоритетного направления государственной политики и одной из ключевых тенденций современного государственного управления⁴. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев подчёркивает, что «предотвращение распространения среди молодёжи “вируса” идеологии насилия также относится к числу крайне актуальных задач»⁵. Рост числа случаев насилия среди учащихся общеобразовательных школ Узбекистана обуславливает необходимость разработки современных подходов к предупреждению подобных негативных явлений. В частности, актуализируется потребность в адаптации и внедрении в национальную практику программ и механизмов, доказавших свою эффективность в зарубежных странах, что требует поиска и применения новых методов и технологий профилактической деятельности.

Нормативно-правовую основу проводимой в данной сфере деятельности составляют новая редакция Конституции Республики Узбекистан, Закон Республики Узбекистан «Об образовании»⁶, Закон Республики Узбекистан «О гарантиях прав ребёнка»⁷, Закон Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия»⁸, Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»⁹, Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года, утверждённая Указом Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № ПФ-5712¹⁰ Постановление Президента Республики Узбекистан от 22 апреля 2019 года № ПП-4296 «О дополнительных мерах по дальнейшему усилению гарантий прав ребёнка»¹¹, а также другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу общественных отношений.

Степень изученности проблемы. На протяжении всей истории человечества люди в различных формах проявляли агрессивное и жестокое отношение друг к другу. В частности, согласно учению зороастризма, Ахриман, являющийся воплощением зла, наряду с другими отрицательными качествами олицетворяет насилие, способствуя формированию представлений о недопустимости подобных действий и применения силы в межличностных отношениях¹². Возникшая впоследствии исламская религия, являясь религией мира и созидания, пропагандирует идеи добродетели, милосердия,

⁴ Bekmurodov M. Inklyuziv jamiyat- ijtimoiy davlatning ma'naviy poydevori.//Ijtimoiy davlatda inklyuziv yondashuv imkoniyatlari.- Toshkent 2024.- B.16.

⁵ Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston -Toshkent: "O'zbekiston" 2024. -B.21.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/-5013007>

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida. // <https://www.lex.uz>

⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.11.2024 yildagi O'RQ-996-son Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/docs/-7219502>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF №60-sonli Farmoni.// "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/pdfs/5841063>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/4312785>

¹¹ "Bola huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4302023>

¹² Boboyev H, Hasanov S. "Avesto"-ma'naviyatimiz sharchashmasi.-Toshkent: Adolat,2001.-B.110.

сострадания, чистоты, взаимопомощи и развития, а также решительно осуждает насилие человека по отношению к другим людям и окружающей природе¹³. В трудах средневековых мыслителей Центральной Азии — Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни и Алишера Навои — также нашли отражение идеи о необходимости воспитания благородных нравственных качеств человека и о разрушительных последствиях насилия¹⁴.

Первые научные представления о феномене насилия в западной философской мысли встречаются в трудах античных мыслителей Платона и Аристотеля. В дальнейшем философский анализ насилия получил развитие в работах Н. Макиавелли, Т. Гоббса, Дж. Локка, Ж.-Ж. Руссо, Ч. Беккариа, И. Канта, Г. Гегеля и Ф. Ницше¹⁵. Насилие и агрессия выступают объектом исследования различных теоретических направлений. Представители отдельных научных школ интерпретируют феномен насилия исходя из собственных методологических подходов. Однако разработанные до настоящего времени концепции позволяют исследовать лишь отдельные аспекты данной проблемы. Для полноценного понимания природы насилия требуется комплексный подход, учитывающий антропологические, психологические, социологические и культурологические факторы.

Первоначально психологические школы стремились выявить истоки насилия во внутреннем мире человека, его психике и эмоциональной сфере. Подобные подходы получили развитие в исследованиях З. Фрейда, К. Юнга, К. Хорни и Э.Фромма¹⁶. Д.Лейн и О.Малансева связывали буллинг со школьным насилием, рассматривая его как длительное физическое и психологическое воздействие со стороны отдельного индивида либо группы лиц в отношении человека, который в сложившейся ситуации не способен эффективно защитить себя. Данные исследователи осуществили педагогический анализ указанной проблемы¹⁷.

Аспекты взаимосвязи феномена насилия с государственной властью и социальным порядком выступают в воззрениях Т.Гоббса и М.Вебера в качестве важной теоретической проблемы. Если Т.Гоббс обосновывал

¹³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini.// -T.: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi., 2021. -B.632.

¹⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri (Tanlangan asarlar to'plami).// T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.,- 1993 y.; Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.: «Fan», 1968 yil. 1 tom. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 236-bet; Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub.// To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. J.9 454-658 betlar.

¹⁵ Макиавелли Н. Хукмдор. – URL: [https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/\(02.08.2020\)](https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/(02.08.2020)); Гоббс Т. Избранные произведения: В 2 т. М., 1964. Т. 1. С. 292; Локк Дж. Сочинения: В 3 т. /Пер. с англ. и лат. Т. 3/Ред. и сост., авт. примеч. А. Л. Субботин.—М.: Мысль, 1988.; Руссо Ж.-Ж. Общественный договор, или Принципы государственного права. – М.: С. Сирмунт, 1906; Беккариа Ч. О преступлениях и наказаниях. М.: Фирма «Стелс» БИМПЛ, 1995; Кант И. Сочинения. В 8 т. Т. 6. – М.: Чоро, 1994.; Гегель Г. Философия права. – М.: Мысль, 1990; Ницше Ф. Полное собрание сочинений. В 13 т. Т. 5 / Ин-т философии РАН. – М.: Культурная революция, 2005.

¹⁶ Хорни К. Невротическая личность нашего времени – СПб.: Питер, 2002; Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М.: АСТ, 2016. Юнг К.Г. Архетип и символ - М.: Ренессанс, 1991. С. 215

